

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

Кириш сўзи	6
1. Xolbekov Abdug‘ani KOLONIALIZMNING IJTIMOIIY QIYOFASI (TURKIY XALQLARNING ISTILO QILINISHI MISOLIDA).....	9
2. Убайдуллаева Раиса ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ И ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ.....	17
3. Сеитова Зухрагон ОТРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ КРАСОТЫ В ПОЭЗИИ ПОЭТОВ-СУФИСТОВ.....	24
4. Alikariyeva A‘loxon TA‘LIM SHFATI BOSHQARUVI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TURLI YONDASHUVLAR TAHLILI.....	34
5. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA: DAVLATLARNING INTEGRATSIYA SIYOSATI (BUYUK BRITANIYA MISOLIDA).....	40
6. Ходжаев Собир ИНДЕКС АКТИВНОГО СТАРЕНИЯ И ЗАНЯТОСТЬ ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	46
7. Абдувалиева Мумтозхон СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ И БАРЬЕРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	55
8. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLAR MODERNIZATSIYALASHUVINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	66
9. To‘raxo‘jaeva Ra‘no AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI YUZAGA KELISHIDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING O‘RNI.....	73
10. Nematova Dilfuza KAMBAG‘ALLIKNI O‘RGANISHDAGI ILMIY NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	78
11. Eshmanova Iroda TRENDS IN CHANGES IN THE NATIONAL MENTAL CHARACTERISTICS OF UZBEK YOUTH IN MIGRATION CONDITIONS.....	87
12. Teshayev Doniyor OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISH BO‘YICHA MEDIATORLAR TAYYORLASH YO‘NALISHLARI.....	94
13. Pخomov Umrbek O‘ZBEKISTON MAHALLALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIIYLASHUV JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI.....	100
14. Nurqulov Bunyod YOSHLAR SIYOSIIY IJTIMOIIYLASHUVINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI.....	106
15. Qobilov Uchqun DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH UYG‘UNLIGI.....	114

16. Izzatulloeva Kamilla IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF ANTI-CORRUPTION EFFORTS IN THE SOCIAL SPHERE OF UZBEKISTAN.....	120
17. Burxanov Xusniddin AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	128
18. Imomova Nozimaxon O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASI SUBYEKTLARI SA'I-HARAKATLARINING MOTIVATSION TAVSIFI.....	135


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Burxanov Xusniddin,

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
O'zbekiston Milliy universiteti "Sotsiologiya"
kafedrasida mustaqil izlanuvchisi
e-mail: doktorantt@mail.ru

AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16423502>

ANNOTATSIYA

Demokratik islohotlar jamiyatning barqaror taraqqiyoti talablariga mos holatda global internet tarmog'idagi milliy segmentni rivojlanishini talab etadi. Bu borada mamlakatning turli yo'nalishlardagi zamonaviy veb-resurslarni shakllantirish lozim. Shuningdek, raqamli jamiyatda aholini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar maqsadini va xususiyatlarini ochib bera oladigan axborotlarga bo'lgan talabini qondirish zarur. Shu bilan birga raqamli jamiyatda global internet tarmog'ini tartibga solishda va axborot xavfsizligini ta'minlashdagi muammolarni kelib chiqishiga qonunchilikdagi bo'shlaqlar sabab bo'lmoqda. Global internet tarmog'idagi milliy segment saytlarini rivojlantirishga qaratilgan muammolarni o'rganishda ayni vaqtdagi nazariyalar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Internet, axborot xavfsizligi, saytlar, milliy segment, bloger, raqamli jamiyat, texnologiya, jamoatchilik fikri, destruktiv axborot, g'oya, normativ hujjatlar, qonunchilik.

Бурханов Хусниддин,

доктор философии (PhD) по социологическим наукам,
независимый соискатель кафедры «Социология»
Национального университета Узбекистана
e-mail: doktorantt@mail.ru

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ САЙТОВ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

АННОТАЦИЯ

Демократические реформы требуют развития национального сегмента глобальной сети Интернет в соответствии с требованиями устойчивого развития общества. В связи с этим необходимо формирование современных веб-ресурсов в разных областях страны. Также необходимо удовлетворить спрос населения на информацию в цифровом обществе, способную раскрыть назначение и особенности социальных, экономических и политических процессов. В то же время пробелы в законодательстве вызывают проблемы в регулировании глобальной сети Интернет и обеспечении информационной безопасности в цифровом

обществе. Текущие теории были изучены при изучении проблем, стоящих перед развитием сайтов национального сегмента в глобальной сети Интернет.

Ключевые слова: Интернет, информационная безопасность, сайты, национальный сегмент, блогер, цифровое общество, технологии, общественное мнение, деструктивная информация, идеи, регламенты, законодательство.

Burkhanov Khusniddin,

Doctor of Philosophy in Sociology (PhD),
Independent researcher of the «Sociology»

Department of the National University of Uzbekistan
e-mail: doktorantt@mail.ru

PROBLEMS OF DEVELOPING NATIONAL WEBSITES IN ENSURING INFORMATION SECURITY

ABSTRACT

Democratic reforms require the development of a national segment of the global Internet network in line with the requirements of sustainable development of society. In this regard, it is necessary to form modern web resources in different areas of the country. It is also necessary to meet the demand of the population for information in the digital society, which can reveal the purpose and characteristics of social, economic and political processes. At the same time, gaps in the legislation are causing problems in regulating the global Internet and ensuring information security in the digital society. Current theories have been explored in the study of the challenges facing the development of national segment sites on the global Internet.

Keywords: Internet, information security, sites, national segment, blogger, digital society, technology, public opinion, destructive information, ideas, regulations, legislation.

KIRISH

Demokratik islohotlar aholi orasida Internet tarmog‘idagi milliy resurslar, xususan, milliy saytlarga bo‘lgan talabni kuchaytiradi. Shuning uchun milliy saytlar son va sifat jihatdan bugungi kun talabiga mos bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bu borada O‘zbekiston mintaqa davlatlaridan ham ortda qolmay aholisini o‘zi axborot bilan ta‘minlashga harakat qilishi zarur.

Raqamli jamiyatda O‘zbekistonning ijtimoiy madaniy jihatdan transformatsiyalashuvi jamiyatning axborotlashuvi jarayonida kuzatilayotgan qarama-qarshiliklar va rivojlanishdagi jadallashuv jarayoni tarkibida sodir bo‘lmoqda. Ushbu jarayon jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida kommunikatsiyalar tizimidagi harakatlarni tezlashtirdi, shaxsning axborot olish imkoniyatlarini yengillashtirdi. Shu bilan birga, raqamli texnologiya mahsulotlaridan samarali foydalanish zaruriyati inson kundalik faoliyatida ijtimoiy talabga aylandi. Jamiyatning axborotlashuvi axborot oqimiga inson tomonidan uning ijtimoiy faoliyatiga, dunyoqarashi shakllanishiga ta‘sir vositasi bo‘lganligi uchun unga alohida e‘tibor qilishni talab qiladi, shaxsning axborot oqimiga aloqadorligi jarayonida ijtimoiy notekislikning yangi shakllari vujudga keldi. Bunday jarayon internet milliy segmentlari faoliyatini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini shakllantirishni dolzarb masala sifatida ilgari suradi.

Avvalo, ushbu masalada axborot xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan nazariyalarni ko‘rib chiqsak, bu borada axborot xavfsizligining metodologik asoslari M.Kastels xulosalariga tayanilgan bo‘lib, olim internet milliy segmentlarida jamiyatlar o‘z iqtisodiy manfaatlarini oshirishga qaratishini asoslaydi. [1, – B.25]

METODOLOGIYA

XX asr o‘rtalaridayoq sotsiolog olimlar global elektron kommunikativ tarmoqning yangi avlodi vujudga kelishini, uning jahon aholisini yagona global axborot jamiyatiga birlashtirishi mumkinligini bashorat qilganlar. Sotsiologiyaning klassik vakili, jamiyatshunos olim M.Maklyuen bo‘ljak jamiyatni «global qishloq» deb nomlagan edi. Tadqiqotchi ijtimoiy jamiyatning yangi shakli

yuqori tezlikka ega bo'lgan elektron kommunikatsiyalarga asoslanishini, jahonda hududiy vaqt chegaralarini olib tashlashini, planetada global fikr almashuvini shakllantirishni, ijtimoiy va axborot tizimining yangi taraqqiyot bosqichiga olib kelishini ta'kidlaydi. [2, – B.35]

Shuningdek, I.A.Shevchenko internetda turli siyosiy g'oyalarga qarshi kurashda milliy manfaatlarini hisobga olish va axborot xavfsizligiga katta e'tibor berish lozimligini ko'rsatadi. [3, – B.16]

O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan ishlarda internet milliy segmentiga oid qator nazariy yondashuvlar mavjud. Masalan, Sharq kishisi uchun individualizm hamisha halokat, jamoada uyg'unlashuv esa sokinlik va bexavotirlik omili bo'lib kelgan. Jamoaviy xavfsizlikni ta'minlash ehtiyoji Sharqda qadimgi davrlardayoq davlatchilik tizimlarini tarkib toptirdi. [4, – B.9] Bu bugungi kunda jamoalar o'z internet milliy segmentlarini yaratish orqali o'z xavfsizligini ta'minlashga qilgan harakatlarida ko'rinadi.

Ayni vaqtda milliy segment saytlari OAV sifatida rivojlanib borishi «Transformatsiyalashgan matbuot nazariyasi»ga asosan shakllanmoqda. Bugungi kunda OAV faoliyatini tubdan o'zgartirish va takomillashtirish orqali yangi davr – axborotlashgan jamiyatga xizmat qiluvchi «Transformatsiyalashgan matbuot» tushunilmoqda. [5, – B.48]

ASOSIY QISM

Internet tarmog'ida joylashtirilgan ma'lumotlarning asosiy foydalanuvchilari yoshlar ekanligi, internet tizimi tomonidan taqdim etilayotgan tezkor aloqa imkoniyatlari yoshlarga mo'ljallangan saytlar jadallik bilan rivojlanishiga olib kelmoqda. Bunday kommunikativ imkoniyatlar yoshlarning internet imkoniyatlariga ishonchini oshirdi, xorijiy mamlakatlarda istiqomat qilayotgan hamkorlari, do'stlari, hamkasblari, qarindoshlari va izdoshlari bilan sifatli aloqa vositasi rolini bajardi. Shu bilan birga, yoshlarning muayyan qismi internet tarmog'ida bo'sh vaqtlarini o'tkazishi, ularni salbiy mazmundagi axborotlar majmuasi, demokratik jamiyat rivojlanish tendensiyalariga zid bo'lgan, buzg'unchi g'oyalarni tarqatayotgan saytlar ta'siriga tushishiga sabab bo'lmoqda. Globallashuv va axborot bosimi muttasil oshib borayotgan davrda ayrim xorijiy davlatlar hududida zararli ta'sirga tushgan yoshlar faoliyatini tasvirlovchi, ularning tajovuzkorlik, bosqinchilik, jinoyatchilik, giyohvandlik, buzg'unchilik faoliyatini tashviqot qiluvchi ma'lumotlarga ega bo'lgan internet saytlarining soni ortib bormoqda. Internet tarmog'ida ma'naviy buzuvchi va turli g'arazli maqsadlarni, konstitutsion tizimga qarshi, demokratik jamiyat qurish talablarini inkor etishni targ'ib qiluvchi, tinch-osoyshta, ijtimoiy, iqtisodiy turmushni buzishga undovchi ishlar bilan shug'ullanayotgan internet saytlari soni oshib bormoqda.

Bunda mobil aloqa vositalaridan ijtimoiy, iqtisodiy zaruriyat uchun foydalanish muttasil ortdi. Jumladan, Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda mobil aloqa abonentlari soni 36,3 mln birlikka yetgan [6]. Natijada, Internet saytlarning mobil versiyalari ko'payib, ijtimoiy tarmoqlar messenjer ko'rinishiga o'tmoqda. Shu bois, hozirda mobil messenjerlar yaratilishi yoshlarni xorijiy ijtimoiy tarmoqlarga qiziqishini oshirmoqda. Nazarimizda yaqin istiqbolda milliy segment saytlarning mobil sahifalari rivojlanib borishidan dalolat bermoqda. O'zbekistonda milliy resurslar, ya'ni milliy saytlardan foydalanuvchilarning 75%i aynan mobil dasturlar orqali kirgani aniqlandi. Bunday jarayon raqamli jamiyat rivojini ta'minlovchi omil sifatida milliy saytlarni mobil dasturlar uchun qulay bo'lgan segmentda tashkil etish maqsadga muvofiq ekanligini anglatadi. Bu borada messenjerlar rivojlanmaganligi yoshlarni milliy ijtimoiy tarmoqlarga jalb etish masalasini ortga surmoqda. Bunday ijtimoiy vaziyat mamlakatimiz kiber Internet tarmog'idagi milliy segment saytlari axborot resurslarining 28,6% ta'lim va ko'ngilochar saytlar (shundan, ta'lim 12,6%, ko'ngilochar 16% resurslar) ekanligi qayd etilishi, ushbu sohada axborot resurslarini ko'paytirishga e'tibor zarurligini anglatadi [7].

Bundan tashqari O'zbekistonda sport sohasi Internet tarmog'ida milliy segmentdagi axborot resurslari 1,1%ni tashkil etmoqda. Biroq, ayni vaqtda mamlakatimiz Internet milliy segmentidagi sportga oid saytlar reytingida yuqori o'rinda bo'lib, eng ko'p foydalanuvchiga ega va aholi orasida ijtimoiy talab darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Jumladan, «championat.asia» sayti foydalanuvchilarining kunlik tashrifi bo'yicha milliy segmenti saytlari reytingida 9-o'rinda turib, ushbu saytga bir kunda o'rtacha 111 ming foydalanuvchi tashrif buyurishi kuzatildi.

Mazkur holat aholi vakillari orasida sportga oid saytlardagi axborotga qiziqish yuqori ekanligidan dalolat. Biroq, yoshlar qiziqishi yuqori bo'lgan sportga oid saytlar faoliyatida Internet tarmog'idagi milliy segmentdagi resurslar kamligi ularni xorijiy sportga oid saytlarga talablarini kuchaytiradi. Bunda milliy saytlarda sportga oid ma'lumotlar, axborot, jozibador ko'rsatuvlar, roliklar, elektron kutubxona manbalarini ko'paytirish maqsadga muvofiq. Boshqacha aytganda bunday axborot tarqatish usuli foydalanuvchilarning milliy saytlarga e'tiborini oshirib, xorijiy saytlar bilan raqobatga kirishishini bildiradi.

Internetdan foydalanuvlari nafaqat sport sohasi, balki milliy madaniyat, xususan, san'at arboblarning namunali hayoti va ijodiy faoliyatiga qiziqishi yuqori. Masalan, taniqli aktyorlar, xonanda va sozandalar, mo'yqalam sohiblari, balet ustalari bilan «eksklyuziv» intervyular, «davra suhbat»larini o'z sahifalarida berib boruvchi «Qalampir.uz» veb-sayti Internet milliy segmenti saytlari reytingida kuchli to'rttalikka kiradi. Unga kunlik tashriflar soni 186 mingdan oshadi. Demak, mazkur saytdagi materiallar kontenti aholi orasida unga qiziqish yuqori ekanligidan dalolat beradi. Biroq, tahlillar natijasiga ko'ra, milliy segmentdagi axborot resurslar ushbu sohada atigi 1,6%ni [8] tashkil etishi achinarli holat.

Monitoring natijasida kundalik yangiliklar bilan tanishtiruvchi milliy segment tarkibiga kiruvchi veb-saytlar reytingda eng oldi o'rinlarda bormoqda, ular tashrif buyuruvchilar soni bo'yicha ham yetakchilik qilishmoqda. Jumladan, «Daryo.uz» veb-sayti 1-o'rinda, unga ba'zan bir kunda 1 million foydalanuvchi tashrif buyuradi.

Raqamli jamiyat sari rivojlanib borayotgan demokratik davlatlar Internet tarmog'idagi saytlar orqali biznes, tadbirkorlik sohasini jadal rivojlantirmoqda. Aholining Internet do'konlari va mahsulot reklamalariga qiziqishi ortmoqda. Yoshlarning aksariyati ushbu sohaga yo'naltirilgan saytlarga joylashtirilgan axborotdan samarali foydalanishi, eng avvalo, milliy segment rivojlanishida asosiy omil bo'lmoqda. O'zbekistonda esa Internet milliy segmentida biznesga oid axborot umumiy resurslarning 34,6%ini tashkil etmoqda [9]. Tadbirkorlik sohasiga oid «olx.uz» xususiy sayti Internet milliy segmenti saytlari reytingida kuchli beshlikdan o'rin olgan. Bu ham aholi orasida biznes va reklamaga oid saytlar faoliyatiga ijtimoiy qiziqish yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Raqamli jamiyat davrida Internetda milliy axborot resurslarini ko'paytirish tabiiy holat bo'lib, milliy saytlar samaradorligi axborot texnologiyalarini rivojlantirishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bu borada mamlakatimizda bir qator ishlar amalga oshirilishiga qaramay, sohada muayyan kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Xalqaro talab darajasida axborot-kommunikatsiyalarni rivojlanish indeksi bo'yicha O'zbekiston reytingdagi 176 ta mamlakat ichida 95-o'rinni egallagani, AKT sohasining mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,2%ni tashkil etgani [10] mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanilmayotganligidan dalolat beradi.

Demokratik islohotlar natijasida Internet tarmog'i turli fikr va qarashlarni erkin ifoda etish maydoniga aylanmoqda. Dunyodagi yagona axborot maydoni ta'sirida yangicha mentalitet va madaniyat vujudga kelmoqda.

E'tiborli jihati O'zbekistondagi ta'limda elektron kutubxonalarni shakllantirgan hamda axborot resurslariga boy bo'lgan «Ziyonet.uz» sayti o'z foydalanuvchilari bilan nafaqat Qozog'istondan, balki qo'shni davlatlardan ustunlik qilmoqda.

Internet tarmog'ida axborot xavfsizligini ta'minlash jarayonida yoshlar foto, audio va video materiallar yuklab olish bo'yicha saytlarga katta qiziqish bildirishmoqda. Ushbu holatdan ko'ngilochar saytlar O'zbekiston milliy segmentidagi axborotda yuqori o'rinlarga ega ekanligida ham ko'rish mumkin. Mamlakatimiz milliy segment tarkibidagi yoshlar manfaatlarini ifodalovchi saytlar rivojlanishining hozirgi kundagi holati tadqiq qilindi. Ushbu tahlil davomida internet tarmog'i saytlari milliy segmenti, asosan, rivojlanganligiga e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda milliy segmentdagi saytlar rivojlanish tendensiyalari va mavjud holatni «www.uz» va «www.cctld.uz» saytlari monitoring qilib bormoqda. «Milliy axborot qidiruv tizimi» monitoringi Internet tarmog'i milliy segment saytlar holatini baholashda quyidagi talablarni qo'ymoqda:

- 1) tashriflar sonining ko'pligi (3 mingdan oshganligi);
- 2) yangilanishi (har kuni);
- 3) interfaol xizmatlar (forumlarning borligi);

4) turli tillarda shakllantirilganligi (kamida 3 ta til).

Yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan monitoring tahlili natijasiga ko'ra, mamlakatimiz milliy segmenti saytlarida ushbu talablarga javob beradigan saytlar soni 100 tani tashkil etgan [11]. Internet tarmog'ida milliy segmentdagi saytlar reytingida, xususan, «Mover.uz», «Olx.uz» va «Mytube.uz» saytlari yuqori o'rin egallagan.

O'zbekistonda koronavirus pandemiyasi sharoitida Internetdan foydalanish va uning texnik imkoniyatlari o'rganilganda muayyan kamchiliklar aniqlandi. Jumladan, onlayn orqali maktab o'quvchilarining darslari uchun ajratilgan sharoitlar birinchi navbatda, barcha maktablarda axborot texnologiyalari uchun infratuzilma talabga javob bermasligi kuzatildi. Mamlakatimizda global internet tarmog'ida milliy segment tarkibidagi oliy ta'limga oid saytlardan «Ziyonet.uz» rivojlanib bormoqda. 2006 yilda tashkil etilgan ushbu sayt hozirda eng katta portalga aylanib, professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, doktorantlar, bakalavr, magistrnlarni birlashtiruvchi va undan ko'p foydalanuvchiga ega bo'lgan yagona saytdir.

Raqamli jamiyat sari rivojlanish natijasiga qaramay, O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar faoliyati qoniqarli darajada emas. Milliy segmentdagi ijtimoiy tarmoqlar kunlik axborotdan foydalanuvchilar soni bo'yicha ommalashmagan saytlar qatoriga kiradi. Jumladan, mamlakatimizda «Tforum.uz» va «Vsetut.uz» kabi ijtimoiy tarmoqlarga foydalanuvchilar tashrifi kamligi kuzatilgan. Bu esa ular faoliyatida muayyan kamchiliklar mavjudligi, maqola va materiallarning abonentlar talablariga javob bermasligi aniqlandi. Bunda foydalanuvchilarni milliy ijtimoiy tarmoqlarga jalb etishning samarali usullari ishlab chiqilmagan. Shuning uchun ham, milliy ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar soni kam. Hozirda o'zbekistonlik ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining 98% xorijiy, 2% esa mahalliy ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Biroq, bu borada xorijiy ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish indeksi yuqori ko'rsatkichlarga ega. «Odnoklassniki», «facebook» ijtimoiy tarmoqlari, ko'plab o'zbekistonlik a'zolariga ega.

Raqamli jamiyat shakllanishi jarayonida milliy segmentga foydalanuvchilarni jalb etishda nimalarga e'tibor berishni aniqlash maqsadida o'tkazilgan kontent-tahlil natijasiga ko'ra «ZiyoNet» saytida sportga oid ma'lumotlar ko'payib, uning sahifalarida foydalanuvchilar eng ko'p tashrif buyurgan sahifa «library.ziyonet.uz/uz» bo'lib, bu esa sayt foydalanuvchilarini, asosan, kitoblar qiziqtirishi va unga talab katta ekanligini anglatadi [12]. Milliy segmentdan foydalanuvchilar orasida 2023-yilning eng ommabop yo'nalishlari internet tarmog'ida milliy segmentda 3 ta yo'nalishdagi saytlar ommalashgani kuzatildi. Bular:

- 1) video materiallari bo'lgan saytlar: “mover.uz”.
- 2) ta'limga oid elektron kutubxonalari bo'lgan saytlar: “ziyonet.uz”
- 3) sportga oid saytlar: “stadion.uz”.

Jamiyatning barcha sohalariga raqamli texnologiya joriy qilinmoqda. Jumladan, servis, turizm, savdo va umumiy ovqatlanish obyektlarining jozibadorligini oshirish maqsadida ziyoratgoh, temir yo'l vokzallari, aeroport, Toshkent metropoliteni va turistik obyektlarda xo'jalik yurituvchi subyektlar, telekommunikatsiya operator va provayderlari tomonidan 685 dan ortiq Wi-Fi tarmog'i orqali Internetga ulanib, ishga tushirildi [13]. Bunday ishlar Respublikadagi maktablar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, universitetlarda amalga oshirildi. Natijada talaba yoshlarning Internetdagi milliy saytlar axborot bazasida foydalanish jarayoni takomillashtirildi.

Bundan tashqari yagona interfaol davlat xizmatlari portalining yangi varianti ishga tushirildi. Hozirda O'zbekistonda mazkur yagona portal orqali 176 ta elektron davlat xizmati taqdim etilib, ushbu xizmatlardan foydalanish uchun 15,1 mln.ta ariza-buyurtma kelib tushgan. Bunday ishonchli jarayon davlat organlari bilan o'zaro muloqoti uchun aholining vaqt va moliyaviy xarajatlarini kamaytirishga olib keldi. Natijada amaliy va samarali ro'yobga chiqarish va muammoli masalalarini hal etish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi “business.gov.uz” portali ishga tushirildi.

Jamiyatda raqamlashtirish jarayonini chuqurlashtirish maqsadida elektron raqamli imzodan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini manfaatdor vazirlik, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ko'rib chiqish va kelishish mexanizmi joriy etildi. Shu bilan birga o'sha loyihani keng jamoatchilik va mutaxassislar muhokamasini o'tkazib, uni tezkorlik bilan

foydalanuvchilarga joʻnatishda vaqt va mehnat resurslarini tejash maqsadida yagona elektron tizimi “project.gov.uz” joriy etildi. Axborot tizimini kompyuter texnologiyalari orqali dasturlash xizmatlari bilan shugʻullanib kelayotgan xoʻjalik subyektlari va kichik tadbirkorlar faoliyatini qoʻllab-quvvatlash maqsadida Oʻzbekiston dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish boʻyicha dasturiy mahsulot ishlab chiquvchi korxonalar tashkil etdi. Istiqbolli startup-loyihalarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha 15 ta startup-tashabbuskorlar inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarida ishtirok etdi. Eʼtiborli jihati saylov jarayonini boshqarish axborot tizimi (“saylov.gov.uz”) joriy qilindi. Manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda saylovchilarning yagona elektron roʻyxati shakllantirilib, Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimi bilan integratsiya qilindi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida taʼlim jarayoni tizimli modernizatsiyalashtirilmoqda. Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning hududiy filiallari 2018/2019-oʻquv yilidan boshlab zamonaviy taʼlimning kredit tizimiga oʻtdi. Kredit tizimiga oʻtish orqali oʻquv rejaları jahon standartlariga moslashtirish uchun yangi fanlar bilan boyitilib, talabalarga fanlarni tanlash erkinligi berildi. Shuningdek, professor-oʻqituvchilar va talabalarga akademik mobillik tizimini yoʻlga qoʻyish imkoniyati yaratildi. Ushbu jarayonni jahon standartlari asosida tashkil qilish maqsadida Universitetga maʼruza va amaliy mashgʻulotlar oʻtkazish maqsadida xorijiy davlatlardan professor-oʻqituvchilar taklif qilindi. Hukumatning 2019-yil 18-yanvardagi “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tarkibida Oʻzbek-Belarus qoʻshma axborot texnologiyalari fakultetini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 46-son qarori qabul qilindi. Shuningdek, 2019-yilda universitetda Yaponiya xalqaro hamkorlik tashkilotining 1,6 mln. dollar miqdoridagi texnik granti hisobiga Oʻquv media markazi foydalanishga topshirildi. Universitet Yevropa Ittifoqining “Erasmus+” dasturi doirasida 5 ta yangi loyihada ishtirok etib, umumiy loyihalar soni 10 taga yetdi. Toshkent shahridagi INHA universitetiga Koreya va boshqa xorijiy davlatlardan professor-oʻqituvchi va mutaxassislar jalb etildi. 2019-yilda INHA universitetida “SAP Vision center” faoliyati yoʻlga qoʻyilib, ushbu xalqaro markaz va universitet oʻrtasida hamkorlik doirasidagi kelishuvga asosan talabalar va professor-oʻqituvchilar kompaniyaning “SAP University Alliance” dasturi doirasidagi oʻquv qoʻllanmalardan begʻaraz foydalanish imkoniyatiga ega boʻldi.

Oʻzbekistonda “Elektron hukumat” tizimi qoʻyildi. Axborot tizimini ishlab chiqish va muvofiqlashtirish uchun, yaʼni yagona davlat siyosatini olib boradigan vazirlik vujudga keldi. Eng muhimi Oʻzbekiston Respublikasida “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” dasturi ishlab chiqilib, ushbu yoʻnalishdagi ishlarni takomillashtirish natijasida “Elektron hukumat”ni amalga taʼminlash maqsadida davlat idoralarida axborot tizimlarini joriy etish jarayonlari optimallashtirildi. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik park hududini kengaytirish va yangi infratuzilma obyektlari qurilishini boshlash maqsadida Texnopark konsepsiyasi ishlab chiqilib, uning hududida 400 ming kv.m.dan ortiq ofis binolari, konferens zal, kovorking markaz, mehmonxona va boshqa binolarni qurish boʻyicha investorlar uchun mehmonxona qurildi. Natijada dasturiy mahsulot ishlab chiquvchi mingdan ortiq yangi korxonalar tashkil etilib, 14 mingdan ortiq yangi ish oʻrni yaratildi. Soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijiy hamkorlar bilan birgalikda “Bir million dasturchi” loyihasini amalga oshirish boshlandi. Darhaqiqat, raqamli jamiyat rivoji axborot texnologiyalari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, telekommunikatsiya infratuzilmasini hayotga izchil joriy etilishi ana shu maqsadga xizmat qiladi.

XULOSA

Hozirda Internet tarmogʻidagi axborot resurslarini boyitish, xususan, milliy segmentga mansub saytlarni rivojlantirish va yoshlarni buzgʻunchi gʻoya va mafkuralar taʼsiridan himoya qilishda quyidagi ijtimoiy muammolarga duch kelinmoqda:

1) Internet tarmogʻidagi Oʻzbekiston milliy veb-saytlari soni va unda joylashtirilgan axborotning jozibadorligi, auditoriyada voqealar rivojiga boʻlgan munosabat bildirish tezkorligi va sifati boʻyicha xalqaro talablardan ortda qolmoqda;

2) mamlakatimizda internet milliy segmenti saytlari orqali aholini axborot bilan taʼminlashda tezkorlik, hozirjavoblik, chuqur tahlil yetishmaydi. Natijada aholining asosiy qismi xorijiy mamlakatlar saytlarida joylashtirilgan axborotlar tizimidan foydalanmoqda;

3) milliy segment saytlaridagi agressivlik, mahalliy va hududiy muammolarga o'ralashib qolish, masalaga tarixiy, falsafiy, iqtisodiy jihatdan yuzaki yoshdashuv mavjudligi, bu borada mutaxassislar yetishmasligi natijasida yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan tarqatilayotgan turli buzg'unchi g'oyalar, vayronkor, radikal mafkuralarga berilib ketish kabi salbiy holatlari mavjud;

4) foydalanuvchilarda sportga oid axborotga qiziqish yuqori bo'lsa-da, biroq, milliy axborot resurslari tarkibida ushbu mavzuga oid argumentlar, turli statistik ma'lumotlar bilan asoslangan qiziqarli, ma'lumotlar geografiyasi yetarli emas;

5) tadbirkorlik va kichik biznes sohasidagi axborot majmuiga bo'lgan ijtimoiy talab ortib borsa-da, ammo milliy segmentdagi saytlarga bu boradagi turli foydali axborotlar joylashtirilishi soni va sifati ijtimoiy talab darajasida emas.

Xulosa sifatida asosiy muammo mamlakatimizda kommunikativ infrastruktura faoliyati, hozirgi davrning jadal taraqqiyot etayotgan talablari darajasida emasligi aniqlandi.

Ikkinchidan, sohani rivojlantirishda yirik innovatsion loyihalar uchun moliyaviy mablag'lar kamligi, Internet tarmog'idagi milliy segment saytlari faoliyatini rivojlantirishda muayyan kamchiliklarni vujudga keltirmoqda. Uchinchidan, ushbu jarayondagi muammolarni bartaraf etishda interaktiv xizmatlar yetishmasligi, unda mazmundorlik va jozibadorlikning yetarli emasligi, saytlar dizaynini tayyorlashda mutaxassislar jalb etilmaganligi ma'lum bo'ldi. Foydalanuvchilarni o'ziga jalb etish innovatsion mexanizmlari samaradorligini oshirish lozim.

To'rtinchidan, Internet tarmog'ida axborot resurslarini o'zida jamlagan milliy segmentdagi veb-saytlar innovatsion taraqqiyot talablaridan ortda qolmoqda. Beshinchidan, bunday ijtimoiy jarayonlar Internet tarmog'ida axborot xavfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatib, "uz" domenidagi mavjud saytlar soni va sifatini boshqa davlatlardan ortda qolishiga olib kelmoqda.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Кастельс М. Галактика Интернет: Размышления об Интернете, бизнесе и обществе. – Екатеринбург: Академия. 2004. – С.25.
2. Маклюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека. – Москва: Академия. 2003. – С.35.
3. Шевченко И.А. Политические интернет-технологии в трансформирующемся обществе: автореф. дис. канд. полит. наук. – Ставрополь, 2005. – С.16.
4. Бекмуродов М. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Тошкент: «Ёшлар». 2020. – Б. 9.
5. Абдуазимов О.У. Ахборотлашган жамиятда жамоатчилик фикри мониторингини таъминлашда оммавий коммуникациялар социологиясининг ўрни (Ўзбекистон оммавий ахборот воситаларининг 2001-2016 йиллардаги материаллари мисолида). – Тошкент: «Фан ва технология». 2016. – Б. 48.
6. Statistika agentligi ma'lumotlari. <https://kun.uz/kr/news/2025/03/09/ozbekistonda-mobil-aloqa-abonentlari-soni-qanchaga-yetgani-malum-qilindi-09.03.2025-y>.
7. Statistika. <https://www.uz/stat-01.03.2025-y>.
8. Statistika. <https://www.uz/ru/res/visitor/index?id=34814/01/03/2025>.
9. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumoti. Statistika. <https://www.uz/02.03.2025-y>.
10. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. <https://kun.uz/news/2025/01/01/akt-xizmatlarining-yalpi-ichki-mahsulotdagi-ulushi-oshdi-01.03.2025-y>.
11. Axmedov B. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. <https://www.uz/uz/stat/visitors/ratings-04.03.2025-y>.
12. Valiev A. «Ziyonet» sayti <https://library.ziyonet.uz/uzc-04.03.2025>.
13. Alimova N. Axborot texnologiyalari <https://www.ictfund.uz/uz/lists/view/53-04.03.2025-y>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000